



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**XORAZM VILOYATINING
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASI**

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-avgust*



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 62-224-65-09**

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- sentabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **6 096** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **80** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **6 016** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YaTT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida 2024- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **8 508,3** mlrd so‘mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **107,9** % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **313,9** mlrd. so‘mni (o‘shish sur‘ati **66,3** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **8 194,5** mlrd so‘mni (o‘shish sur‘ati **110,6** %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 681,9** mlrd so‘mni (o‘shish sur‘ati **111,7** %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd so‘m	2023- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	8 508,3	107,9
Urganch sh.	2 299,4	111,1
Xiva sh.	395,0	105,8
Bog‘ot	465,9	107,6
Gurlan	702,4	108,1
Qo‘shko‘pir	376,7	109,8
Urganch	1 120,8	105,7
Hazorasp	859,4	105,8
Tuproqqal‘a	192,5	108,2
Xonqa	533,8	105,1
Xiva	305,1	105,6
Shovot	638,1	109,1
Yangiariq	376,6	105,5
Yangibozor	242,7	108,3


2024- yilning yanvar-avgust oyida 2023- yilning yanvar–avgust oyiga nisbatan viloyatning Urganch shahrida (**111,1** %), Qo‘shko‘pir tumanida (**109,8**%) hamda Shovot tumanida (**109,1** %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o‘shish sur‘atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati
dinamikasi (yanvar-avgust)



So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan **113,2 %** ni tashkil qildi.

2023- yilning avgustidan 2024- yilning avgustiga qadar chakana
savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari,
oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-avgust oyida o'sish sur'ati **107,9 %** ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **27,0** % bilan **2 299,4** mlrd so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa Tuproqqal'a tumanida **2,3** % bilan **192,5** mlrd so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar-avgust oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **8 194,5** mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **10,6 %** ga oshdi. Viloyat miqosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **96,3 %** ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2023- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **33,7 %** ga kamaydi va **313,9** mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **3,7 %** ulushiga to'g'ri keldi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

107,5

Urganch

108,3

Xonqa

108,3

Xiva sh.

108,9

Yangibozor

122,1

Urganch sh.

Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

105,9

Bog'ot


128,4

Yangibozor


145,6

Tuproqqal'a

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)





 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (**99,8 %**), Gurlan, Qo'shko'pir va Yangiariq (**99,5 %**) tumanlari mos ravishda yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **3,7 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (**8,3 %**), Xiva tumani (**6,1 %**), Yangibozor tumani (**4,5 %**), Xiva shahri (**3,8 %**) va Hazorasp tumanida (**3,3 %**) kuzatildi.

3,7 %

96,3 %



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2024- yilning yanvar-avgust oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 294,1** ming so'mni (2023- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **105,9 %**) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (**14 960,3** ming so'm), Urganch (**5 225,1** ming so'm) va Gurlan (**4 454,2** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-avgust), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- avgust oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	1 681,9	111,7
Urganch sh.	282,1	105,2
Xiva sh.	81,9	100,9
Bog'ot	206,6	108,7
Gurlan	244,0	110,2
Qo'shko'pir	158,3	124,7
Urganch	-	-
Hazorasp	183,4	125,1
Tuproqqal'a	26,1	120,9
Xonqa	105,4	104,7
Xiva	-	-
Shovot	283,4	117,2
Yangiariq	65,5	103,7
Yangibozor	45,2	102,0

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;


– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi
o'sish sur'atlari

(2024- yil yanvar-avgust)



Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm
(2024- yil yanvar-avgust)














Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-avgust oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 681,9** mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **111,7 %** ni tashkil etdi.

Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **814,2** mlrd so'mni (**118,9 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **867,6** mlrd so'mni tashkil etdi (**105,6 %**).













2024- yilning yanvar-avgust oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **814,2** mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**405,9** mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>405,9 mlrd so'm</p>  <p>49,9 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>74,7 mlrd so'm</p>  <p>9,2 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>84,4 mlrd so'm</p>  <p>10,4 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>42,5 mlrd so'm</p>  <p>5,2 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>25,4 mlrd so'm</p>  <p>3,1 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>26,4 mlrd so'm</p>  <p>3,2 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>14,3 mlrd so'm</p>  <p>1,8 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>26,5 mlrd so'm</p>  <p>3,3 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>37,4 mlrd so'm</p>  <p>4,6 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>10,8 mlrd so'm</p>  <p>1,3 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>13,2 mlrd so'm</p>  <p>1,6 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>94,2 mlrd so'm</p> <p>11,6 %</p>

2024- yilning yanvar-avgust oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **867,6** mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **795,9** mlrd so'm, qo'y va echkilar – **67,8** mlrd so'mni, parrandalar – **4,4** mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>438,9 mlrd so'm</p>  <p>50,6 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>240,4 mlrd so'm</p>  <p>27,7 %</p>	<p>1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>116,6 mlrd so'm</p>  <p>13,4 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>57,7 mlrd so'm</p>  <p>6,6 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>10,1 mlrd so'm</p>  <p>1,2 %</p>	<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>2,3 mlrd so'm</p>  <p>0,3 %</p>
<p>Tovuqlar</p> <p>2,1 mlrd so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Quyonglar</p> <p>0,1 mlrd so'm</p>  <p>0,01 %</p>	<p>Qushlar</p> <p>0,01 mlrd so'm</p>  <p>0,001 %</p>
<p>Otlar</p> <p>0,1 mlrd so'm</p>  <p>0,02%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- sentabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **1 452** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **2** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 450** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- avgust oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	273,0	110,3
Urganch sh.	111,3	108,9
Xiva sh.	15,9	111,4
Bog'ot	19,1	109,7
Gurlan	6,2	111,7
Qo'shko'pir	4,0	109,2
Urganch	39,9	116,0
Hazorasp	9,6	109,6
Tuproqqal'a	4,6	105,5
Xonqa	19,1	108,8
Xiva	5,2	108,7
Shovot	19,0	108,2
Yangiariq	10,2	110,2
Yangibozor	8,8	114,0

2024- yilning yanvar-avgust oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **273,0** mlrd so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan **10,3** % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **93,5** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, foizda
Xorazm viloyati	3 662,4	100,0
Urganch sh.	3 224,2	88,0
Xiva sh.	35,8	1,0
Bog'ot	61,9	1,7
Gurlan	18,4	0,5
Qo'shko'pir	10,6	0,3
Urganch	41,0	1,1
Hazorasp	120,8	3,3
Tuproqqal'a	11,5	0,3
Xonqa	64,3	1,8
Xiva	5,2	0,1
Shovot	24,8	0,7
Yangiariq	31,2	0,9
Yangibozor	12,7	0,3


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (**3 224,2** mlrd so'm), Hazorasp (**120,8** mlrd so'm) va Xonqa (**64,3** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (mlrd. so‘m)




2024- yilning yanvar-avgust oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) **3 662,4** mlrd so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **87,3** foizni tashkil qildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **3 174,2** mlrd so‘m (o‘sish sur‘ati – **159,6** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **488,2** mlrd so‘mni (o‘sish sur‘ati – **22,1** %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘ati, foizda




Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-avgust oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **4 472,1** mlrd so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **6,0** % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda, **4 257,5** mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **120,1** % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **95,2** % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- sentabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **2 334** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **35** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 299** tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Hazorasp tumani (**29,5** martaga) va Qo'shko'pir tumanida (**4,2** martaga) kuzatildi.

	Jami mlrd so'm	2023- yil yanvar- avgust oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	4 472,1	106,0
Urganch sh.	2 394,4	113,8
Xiva sh.	128,2	128,1
Bog'ot	59,0	71,4
Gurlan	99,7	64,0
Qo'shko'pir	51,5	123,5
Urganch	819,0	88,7
Hazorasp	58,8	126,7
Tuproqqal'a	62,7	136,8
Xonqa	190,8	92,6
Xiva	277,3	138,7
Shovot	76,8	118,9
Yangiariq	165,1	94,3
Yangibozor	88,7	120,4